

# PEDAGOGIK MAHORAT

2  
2024



27.	<b>SAIDOV G‘olibjon Komilovich, AXMEDOV Navzod Shuxratovich</b>	Psycho-emotional states and stress resistance of athletes of the Grego-Roman style	135
28.	<b>SAIDOV G‘olibjon Komilovich, AXMEDOV Navzod Shuxratovich</b>	Greco-Roman wrestling and its impact on the development of personal potential and the formation of self-awareness and self-esteem of those involved	140
<b>SAN’AT</b>			
29.	<b>MUHAMMADIYEVA Zarina Bahodirovna, MAMATOV Dilshod Qodirovich</b>	O’quvchilarning estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi	145
30.	<b>MARDOV Sanjar Xudoykulovich</b>	Grafik ta’lim jarayonida dizayn fikrlash va uni amaliy tatbiq qilishda grafik dasturlardan foydalanish metodikasini takomillashtirish	151
31.	<b>MUSTAFOYEV Baxtiyor Ibragimovich</b>	Milliy maqom san’ati ta’limi va ijrochiligidagi “Ustoz-shogird” an’analari	157
32.	<b>MUHAMMADIYEVA Nargiza Qudratovna</b>	Xalq hunarmandchiligiga oid ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishning interfaol metodlari	161
33.	<b>SARIYEV Rabbim Shuhratovich</b>	Chizmachilik darslarida o‘quvchilarga ijodiy loyihalashni o‘rgatish metodikasini takomillashtirishning pedagogik modeli	167
34.	<b>ХОЛИКОВ Комил Буронович</b>	Цитоархитектонический сравнительный анализ структур головного мозга одарённых музыкантов	171
<b>TA’LIM MENEJMENTI</b>			
35.	<b>MATKARIMOV Akramjon Muxtorovich</b>	Xalqaro baholash tadqiqotlarida qo’llaniladigan asosiy tushunchalarning ijtimoiy-pedagogik talqini	176
<b>MA’NAVIYAT VA TARBIYA</b>			
36.	<b>ASADOV To’lqin Hamroyevich, RIZOQULOV Zavqiddin Nuriddinovich</b>	Sharq donishmandlarining ayrim axloqiy-ma’rifiy qarashlari: xulq-atvor, rag’bat-tanbeh, ta’lim-tarbiya	181
37.	<b>HAKIMOVA Nargiza Supxonovna</b>	Talabalarga qadriyatshunoslikning sharqona ildizlari haqida bilim berishning nazariy asoslari	186
38.	<b>IMINOVA Dilnoza Nasirovna</b>	O’quvchilarda kitobxonlikni targ’ib qilishda ota-onarolini oshirishning pedagogik imkoniyatlari	192
39.	<b>JABBOROVA Saodat Zoirovna</b>	Xorij mamlakatlarida bolalar tarbiyasiga qadriyatli yondashuvning o‘ziga xos xususiyatlari	196
40.	<b>YUNUSOVA Go‘zal Sultonovna</b>	Yoshlarda axloqiy qadriyatlar shakllanishiga ommaviy axborotning psixologik ta’siri	202

**MILLIY MAQOM SAN’ATI TA’LIMI VA IJROCHILIGIDA “USTOZ-SHOGIRD”  
AN’ANALARI**

*Mustafoyev Baxtiyor Ibragimovich,  
Buxoro davlat universiteti dotsenti*

*Ushbu maqolada “Ustoz-shogird” “an’analari tarixida “Buxoro Shashmaqomi” ning tutgan o’rni, maqom va maqom yo’lidagi asarlarni ta’lim tizimiga kiritish, yoshlar tarbiyasida maqom san’atidan foydalanishning ahamiyati haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so’zlar:** ustoz-shogird an’analari, “Buxoro Shashmaqomi”, kasbiy musiqa ta’limi, musiqa maktabi, uslub, musiqiy- ma’rifiy faoliyat, nota yozuvni, maqom sho’balari, hofiz-sozandalar, kasbiy musiqa.

**THE TRADITIONS OF “MASTER - STUDENT” IN THE EDUCATION AND  
PERFORMANCE OF ART OF THE NATIONAL STATE**

*В этой статье рассматриваются традиции “Насставник-ученик”, в которой особое место занимает в искусстве “Шашмаком”, вопросы место и использование в системе образования, а также роль и значение искусства макома в воспитания молодёжи.*

**Ключевые слова:** традиция “Насставник-ученик”, Бухарский “Шашмаком”, профессиональное музыкальное образование, музыкальная школа, стиль, музыкально-просветительская деятельность, части макома, певцы-музыканты, профессиональная музыка.

**THE TRADITIONS OF “MASTER - STUDENT” IN THE EDUCATION AND  
PERFORMANCE OF ART OF THE NATIONAL STATE**

*This article is devoted to tradition “mentor-student”, which takes an important place in art of shashmakom and its issues, importance, usage in educative system, also the role of makom in behavior of youth is given as an example.*

**Keywords:** tradition “Mentor-student”, Bukharian “Shashmakom”, education of professional music, music school, style, musical- education activity, parts of makoms, singer- musicians, professional music.

**Kirish.** Har bir xalqning o’zi uchun e’zozli, qimmatli bo’lgan ma’naviy boyliklari, musiqiy qadriyatlari mavjud. Bular asrlar davomida avloddan avlodga o’tib kelgan, hozirgi kunda ham o’zining ahamiyat- mohiyati, qadrini yo’qotmagan, shu xalqning iftixon manbaiga aylangan durdonalaridir.

Milliy maqom asarlari kishilar ma’naviy-axloqiy olamining shakllanishi va rivojlanishida, ularning ma’naviyatini kamol topishida bebaho badiiy qimmatga ega bo’lgan qadriyatlardan biridir. Bu qadriyat inson faoliyati, tafakkurining yuksak cho’qqisi hamda badiiy ijodkorligining mahsulidir.

Hozirgi musiqa ta’lim-tarbiyasi tizimi o’zida Shashmaqomni uzoq o’tmishdan san’at sifatida o’rganilib, tadqiq etilib kelinayotganligi, musiqa maktablari an’analari, ilg’or amaliy tajribalar mahsuli sifatida takomillashayotganligi bilan ahamiyatlidir. Ayniqsa, Istiqlol yillarda o’zbek milliy maqom san’atining noyob namunalarini keng targ’ib etish, uni asrab avaylash va rivojlantirish, yosh avlod qalbida milliy mumtoz san’atimizga hurmat va e’tibor tuyg’ularini kamol toptirishda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi PQ-3391-sonli “O’zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to’g’risida” gi Qaror muhim ahamiyatga ega bo’ldi. Qarorda “Xalqimiz, xususan yosh avlodni maqom san’ati bilan keng tanishtirish orqali ularda milliy o’zlikni anglash tuyg’usi yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish” vazifasi qo’yildi [1].

Prezidentimizning Xalqaro Maqom san’ati anjumani ochilish marosimida so’zlagan nutqida: “Maqom ohanglari, maqom ruhi va falsafasi har bir inson qalbidan, avvalo, unib-o’sib kelayotgan yosh avlodimizning ongi va yuragidan chuqur joy olishi uchun bor imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur” ekanligi alohida ta’kidlanib, “Agar biz asl, haqiqiy san’atni bilmoquechi, o’rganmoqchi bo’lsak, avvalo mumtoz maqom san’atini bilishimiz, o’rganishimiz kerak”. “Agar biz san’atni, madaniyatni ko’tarmoqchi bo’lsak, avvalo mumtoz maqom san’atini ko’tarishimiz kerak” ligi alohida e’tirof etildi [2].

Buyuk Turon zaminida musiqa san’ati va ijrochilik madaniyatining rivojlanishi, ustoz-shogirdlik an’analari qadim zamonalarga bog’lanib ketadi. Sharq allomalari Muhammad Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobi, Abu Ali ibn Sino, Umar Xayyom, Mirzo Ulug’bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon

Jomiy, Alisher Navoiy, Najmiddin Kavkabiy, Darvish Ali Changiy va boshqa ulug‘ bobokalonlarimiz o‘zlarining risolalarida maqom ijrochilik san’ati, musiqa ilmi va tarixi, cholg‘u sozlarining tuzilishi, ijroviy uslublar, ustoz-shogirdlik tartibi, qonun-qoidalariga oid qimmatli ma’lumotlarni bayon etganlar.

**Asosiy qism.** Tarixiy ma’naviy meros sanalmish “Qobusnama” asarida ta’lim-tarbiya masalalariga alohida e’tibor berilgan. Shogirdlarga musiqa ta’lim-tarbiyasi, uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati haqida qimmatli mulohazalar bildirilgan. Jumladan, asarda “... Agar hofiz bo‘lsang, xushfe’l, quvnoq bo‘l, hammavaqt o‘zingni toza tut, sendan yoqimli hid kelib tursin, shirinsio‘z bo‘l, o‘z ishingga mashg‘ul bo‘l. Qo‘polso‘z, qovog‘i soliq bo‘limgil, hamma vaqt og‘ir yo‘l (maqom) larni chalaverma va hamma vaqt yengil kuylarni ham chalaverma, negaki odamlarning hammasi bir xilda emas, tabiatlari ham bir-biriga muvofiq emas...” [6, 114-115].

Tarixning guvohlik berishicha, musiqiy asarlarning eng oliylari hisoblanmish maqomlar va maqom yo‘lidagi asarlar ma’lum davrlar davlatchiligining eng oliv dargohlarida ijod qilingan, ijro etilgan, rivoj topgan. Shubxasiz, bu murakkab ijodiy va ijroviy jarayon taraqqiyotida bastakorlik an’analari bilan birga musiqiy ta’lim-tarbiya usuliyati saboqlarining ham mohiyati beqiyos bo‘lgan.

Ichki imkoniyatlarini umuminsoniy yuksak darajalarga ko‘tarib, uni dunyoga mashhur etgan maqom tabiatи Buxoro tuprog‘i, shu voha ilmiy-ma’rifiy muhiti ruhiy iqlimiga mos edi. Shashmaqom XVIII asr o‘rtalarida Buxoroda saroy kasbiy musiqachilar va musiqashunos olimlari tomonidan olti maqomdan iborat turkum tarzida ifoda topganligi uchun “Buxoro Shashmakomi”, deb yuritiladi. U kasbiy-ustozona musiqa namunasi bo‘lib, yirik hajimga ega, murakkab tuzilishi, umumiy soni 250 dan ziyod ashula, cholg‘u asarlarni o‘z ichiga olgan tizimli musiqiy majmuadir. Shogird “Shashmaqom”ning cholg‘u va aytim yo‘llarini puxta o‘zlashtirishi uchun turkumning tuzilishi, tarkibi, usul xususiyatlarini ham bilishi muhim bo‘lgan.

Maqomlarning cholg‘u bo‘limlarida bir xil nom bilan ataladigan cholg‘u qismlari bo‘lib, ularning ohanglari turlicha bo‘lsa-da, doyra usullari bir hildir. Ular Tasnif, Tarje’, Gardun, Muhammas va Saqil mashhurdir. Shashmaqomning ashula bo‘limi sho‘balari ham bastakorlik san’ati an’analari mahsuli sifatida yuzaga kelgan.

Maqom tarixiga oid maxsus adabiyotlarda bitilishicha, maqom va maqom yo‘lidagi asarlarni maxsus musiqa ta’limi tizimiga kiritish masalasi, ayniqsa jadidlarning diqqat markazida bo‘lgan. Musiqiy - ma’rifiy faoliyatning namunasi sifatida Abdurauf Fitrat 1921-yil 10-avgustda Buxoro hukumati farmoni bilan 1-Sharq musiqa maktabini tashkil etgan. Bu maktabda bolalarning musiqiy ta’limi saboqlari og‘zaki musiqapagogikasiga mansub-an’anaviy uslubda olib borilgan. Musiqa maktabida Ota Jalol, Ota G‘iyos, Domla Xalim Ibodov, Usto Shodi, Xoji Abduraxmon kabi ustozlar maqom va maqom yo‘lidagi kuy-ashulalarni, ularning usullarini yosh talabalarga o‘rgatishgan. Mashhur hofiz-sozandalar mакtabda murabbiy sifatida faoliyat ko‘rsatib, o‘zlarining musiqiy-ijrochilik faoliyatlarini pedagogik ishlari bilan uyg‘un holda amalga oshirishgan. Shu tariqa maqom ijrochiligi, milliy musiqamiz targ‘iboti, shogirdlar tayyorlash vazifalari, ustozu-shogird an’analarida davom etib kelgan.

O‘tmishda ustoz maqomxonlar yoshlik chog‘laridanoq bu kasbga mehr va havas qo‘yanlar o‘z kasbining sir-asrorlarini egallash uchun juda ko‘p mashaqqatlar chekkanlar. Mohir hofiz-sozanda ustozlar ishtirok etgan to‘y-tomoshalarda, mehmondorchilik, ziyofatlarda ko‘p hollarda uzoqdan ularning ijrosini tinglab, eshitganlarini xirgoyi qilib yurishar, iste’dodlari muayyan darajaga yetgach ma’lum bir ustozsan’atkorga shogirdlikka qabul qilinishgan. Nota yozuvi bo‘Imaganligi bois, xalq kuylari va Shashmaqom shu’balari ustozdan shogirdga og‘zaki tarzda o‘rgatilib kelgingan. Shuning uchun har bir hofiz xalq kuylari, maqomlarni kengroq yoyish, targ‘ib etish hamda ularga yanada umrbokiylik bag‘ishlash maqsadida shogirdlar tayyorlash ishi bilan shug‘ullangan.

“Ustoz-shogird” an’analari qadriyat sifatida-yoshlarda hofiz va sozandachilik kasbiy mahoratini tarbiyalash, ularning ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish, izlanish, ijod qilish, muhimi har tomonlama yetuk shaxsni shakllantirishda o‘ziga xos tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishi bilan ahamiyat kasb etgan. Yana bir jihat shundaki, “Ustoz-shogird” likda ta’lim oluvchining o‘z qobiliyat, imkoniyatlariga ishonchi, irodaviy sifatlari shakllanishi, qolaversa shogirdning ijtimoiy faolligi ustozlar nazoratida bo‘lgan.

Xalqning ma’naviy saviyasini yuksaltirishda o‘zining munosib hissasini qo‘sha oladigan, aql-idrokli, fahm-farosatli va yuksak qobiliyatlari shogirdlar tayyorlashni ustozlar o‘zining kasbiy burchi sifatida teran anglashgan. Albatta, ustoz yaxshi shogird tayyorlash uchun, avvalo uning o‘zi kasbiy salohiyatli, ma’naviy barkamol, keng dunyoqarash va sog‘lom fikrga ega bo‘lmog‘i lozim. Qadimdan ustoz-shogird an’analarida ustoz nafaqat shogirdiga yo‘l-yo‘riq, tavsiya va ko‘rsatma beribgina qolmay, o‘z navbatida ularni mustaqil faoliyatga tayyorlagan hamda o‘zidan keyin bilim-iqtidori, san’ati, ijrochilik mahoratini avloddan-avlodga o‘tishiga ham harakat qilgan.

Kasbiy musiqa ta’limi usuliyatida shogirdlikka qabul qilishning o‘ziga xos qoida-tartiblari bo‘lgan. Jumladan, balog‘atga yetmagan o‘smirni shogirdlikka qabul qilishmagan, shogirdlarning hatti-harakati,

yurish-turishi, axloq-odobi ustozni tomonidan nazorat qilib borilgan. Binobarin, xalq orasida Shashmaqom musiqasini targ‘ibot etish, undan saboq berish mas’uliyati nihoyatda katta bo‘lgan. Levicha hofizga - Ota Jalol, Shohnazar Sohibovga – Levi Boboxonov, Muxtor Ashrafiy, Mutal Burxonov, Ma’rufjon Toshpo‘latov, Tolibjon Sodiqovlarga - Domla Halim Ibodov ustozlik qilishgan. Shu tariqa ustoz-shogirdlik an’analari keyingi avlod vakillari tomonidan davom ettirilib rivojlantirilgan.

Musiqiy ta’limda ilmiylik, davomiylilik, izchillik kabi tamoyillar ustuvor bo‘lib, ular mantiqan o‘zaro bog‘lanib, ustoz-shogirdlik an’analari asosida tarkib topganligi, ustozning mohir usta, bilimdon, nafosat va go‘zallikni teran anglaydigan sharqona axloq sohibi ekanligini amalda namoyon eta olish layoqati bilan xarakterlangan. Shu bilan birga, o‘zbek an’anaviy ijrochilik amaliyoti tarixida san’atkor ustoz kasbiy faoliyatining o‘ziga xos tarkib va tamoyillariga rioya qilgan. Usta sozini, cholg‘uni chalish uchun qo‘liga olishdan oldin, xalq oldiga kuylashga chiqishdan avval, albatta jismi va ruhiyatini poklagan.

Buxorolik taniqli hofiz, sozandalar shogird tayyorlash barobarida o‘z farzandlarining milliy merosni o‘zlashtirishlariga, musiqiy ta’lim - tarbiyasiga ham jonbozlik ko‘rsatishgan. Gabriel xofiz o‘g‘li - Soson Benyaminovga, ustod Domla Halim o‘g‘li Olim Halimovga, Shohnazar Sohibov o‘g‘li – Telman Sohibovga ustozlik qilishgan.

Xalq kuylari va “Shashmakom” shu’balari ustozdan-shogirdga ogzaki tarzda o‘rgatilib kelinganligi bois har bir hofiz xalq kuylari, maqomlarni el orasida kengroq yoyish, ularga yanada umrboqiylik bag‘ishlash maqsadida shogirdlar tayyorlash ishi bilan shug‘ullangan. Ustozlar kasbiy musiqa ta’limi usuliyoti maktabi mansub bo‘lajak sozanda-hofizlarga saboq berishda san’atkor odobi me’yorlarini, mezonlarini singdirishda qimmatli tavsiyalardan foydalanishgan.

Kasbiy musiqa ta’limi usuliyotida ustozlar o‘z shogirdlarini har tomonlama yetuk inson darajasida ta’lim-tarbiya berishga harakat qilishgan. Bunda, albatta shogirdning tirishqoqligi, qiziquvchanligi, iste’dodi muhim rol o‘ynagan. Ustoz o‘git-nasihatları shogird tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etgan. Dutorchi sozanda, ustoz Raxmatxo‘ja o‘zining shogirdi yosh Abdulazizga bir necha yillik mashg‘ulotlari davomida kuylarni yo‘liga qarab, qo‘shtor, yakkator usulda chalish kerakligini, chalganda o‘ng qo‘l barmoqlarini dutor qopqog‘iga tegizmaslikni, ko‘z suzib, yelka uchirib, huda-behuda yarashmagan qiliqlar qilmaslikni qayd etib, ijrochi o‘zini sipoh tutishini va faqat lozim bo‘lganida chalish kerakligi kabi bir qancha bergen tarbiyaviy maslahatlari xususida Hoji Abdulaziz Rasulov haqidagi ocherk-kitobchada hikoya qilinadi [3, 23].

Mashhur Levicha hofiz ham o‘z shogirdlariga avvalo musiqaning nozik tomonlarini tushunib, puxta o‘rganib olishni, tinglovchilarini xursand qilmoqchi bo‘lsa, kuyni tinmay o‘rganib, san’atda sinchkov bo‘lishni, binobarin, musiqaning o‘ziga xos qonunlari bo‘lib, uni doimo hurmatlash lozimligini uqtirgan.

O‘sha davrlarda xalq sozanda va xonandalari musiqa san’atiga iqtidorli yoshlarga an’anaviy musiqani, milliy sozlarda chalishga urgatish mashgulotlarini ko‘pincha uy sharoitlarida ham amalga oshirishgan. Sozanda Haydar Musayev o‘zining shogirdlik davrlarini eslab, shunday aytgan : “ Men musiqa maktabida Levichadan ta’lim olishda ko‘pincha uning uyida bo‘lar edim. Onam axtarib kelganlarida meni doim shu yerdan topardi. Levicha shogirdlarining malakasini oshirmoq uchun ularni bazmlarga olib borardi. U tanbur chertib, biz unga jo‘r bo‘lardik ” [5,75-76].

Endilikda “Ustoz-shogird” an’anasi yoshlarda ijodiy izlanishni vujudga keltirishi, musiqiy-pedagogik va badiiy ijrochilik jarayonida ularning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashishi, shogirddagi musiqiy iqtidorni yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratishi bilan ahamiyatlidir.

Respublikamizda milliy musiqa, maqom san’ati ilmi va amaliyotini rivojlantirish maqsadida ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlaridagi muassasalarining o‘quv rejasiga “An’anaviy xonandalik va sozandalik” fanlarining kiritilganligi ustoz-shogird qadriyatlarini zamonaviy sharoitda yanada takomillashtirishga keng imkoniyatlar berdi.

Umumta’lim maktablari musiqa madaniyati darslarida milliy maqom san’ati asoslarini o‘rgatish zamonaviy ta’limning asosiy vazifalaridan biridir. Musiqa madaniyati ta’limi dasturida bunga alohida e’tibor qaratilgan. Musiqa madaniyati fanidan 6-sinf darsligida “Shashmaqom-mumtoz musiqamiz asosi” mavzuida tinglash uchun “Tasnifi Buzruk” kuyi tavsiya etiladi. Yettingchi sindf darsligida 2-chorak 1-mavzu-Maqom tushunchasi. Shashmaqom, 2-mavzu- Shashmaqomning cholg‘u (mushkulot) va ashula (nasr) bo‘limi berilgan bo‘lib, musiqa tinglashda “Nasrulloiy” maqom aytim yo‘lini tinglash tavsiya etiladi. Musiqa savodxonligida “Ota Jalol Nosirov” hayoti va ijodi o‘rganiladi [4, 39].

Musiqa madaniyati fani o‘qituvchilarining malaka oshirishiga qo‘yiladigan Davlat talablarida ham Shashmaqom to‘g‘risida nazariy va amaliy bilim, malaka, ko‘nikmalarni takomillashtirish nazardautilgan. Shunga ko‘ra, malaka oshirish kursi o‘quv-mavzu rejasida “Musiqa mashg‘ulotlarida maqom, Shashmaqom, uning cholg‘u va aytim yo‘llari, o‘zbek xalq musiqa merosi va uning mahalliy (lokal) uslublari haqida ma’lumot” kabi mavzularga alohida o‘rin ajratilgan.

**Xulosa.** Xullas, qadimiy o‘zbek milliy musiqa madaniyati gultoji bo‘lmish Buxoro Shashmaqomining ustoz-shogird an’analari asosida ilmu-amaliyotini o‘rganish borasida asrlar davomida maxsus shug‘ullanuvchi mukammal kasbiy musiqa maktablari shakllangan, rivojlangan hamda takomillashib kelgan. Xalqimizni ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lgan ma’naviyat sarchashmalaridan bahramand etish, musiqiy qadriyatlarimizni tiklash, keng targ‘ibot etishda “ustoz-shogird an’analari” dan foydalanish va uni zamonaviy yondashuv, talablar asosida yanada rivojlantirish muhim vazifalardan biridir.

**Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi PQ-3391-sonli “O‘zbekiston milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori // “Xalq so‘zi”. 2017. – 18 -noyabr)
2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Xalqaro maqom san’ati anjumani”ning ochilish marosimidagi nutqi”. // “Xalq so‘zi”. 2018 y. - 7-sentabr.
3. Axmedov M. Hoji Abdulaziz Rasulov. Toshkent. 1974 y. - B. 23.
4. Musiqa madaniyati fani o‘quv dasturi (1-7 sinflar) Toshkent. 2017. – B.39.
5. Xaimov Y. Levicha xofiz. Toshkent. 1975 y. -B.75-76.
6. Qobusnama. Toshkent, “O‘qituvchi” nashriyoti, 1967 y. -B. 114–115.